



MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASINING MAFKURAVIY ASOSLARI

Saydullayev Abdullo

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Ilmiy rahbar: **Karimov Yo'ldosh**

Milliy g'oya va falsafa kafedrasida katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20757557>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 14-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 16-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 18-iyun 2026 yil

KEY WORDS

mafkura, integratsiya, milliy identitet, bag'rikenglik, mintaqaviy birdamlik, diniy omil, axborot urushi, "yumshoq kuch".

ABSTRACT

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasining mafkuraviy asoslari va milliy-etnik ziddiyatlarning integratsion jarayonlarga salbiy ta'siri IMRAD metodologiyasi doirasida ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot Karl Mannheim va Karl Deutsch nazariyalari asosida mafkuraviy omillarning integratsiya dinamikasiga ta'sirini o'rganib, mintaqadagi milliy identifikatsiya tafovutlari, diniy-ma'rifiy qadriyatlar mushtarakligi va axborot urushining integratsion jarayonlarga ko'rsatadigan ikki tomonlama ta'sirini aniqladi. Tadqiqot natijalari yaxshi qo'shnihilik, bag'rikenglik va umumiy tarixiy xotiraga tayangan mintaqaviy mafkuraviy asoslar integratsiyaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi.

KIRISH

Zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasida integratsiya ko'pincha iqtisodiy va siyosiy omillar kontekstida o'rganiladi. Biroq mafkuraviy omillar-umumiy qadriyatlar, tarixiy xotira, milliy identitet va madaniy o'zlik-integratsion jarayonlarning ijtimoiy-psixologik poydevorini tashkil etib, ko'pincha iqtisodiy va siyosiy mexanizmlardan ham chuqurroq ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi bu jihatdan alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi, chunki mintaqada bir vaqtning o'zida kuchli mafkuraviy birlashtiruvchi omillar-islom sivilizatsiyasi, Buyuk Ipak yo'li madaniy merosi, turkiy-forsiy til va madaniy yaqinlik hamda ajratuvchi omillar turli milliy identifikatsiya tizimlari, siyosiy rejimlar farqi va tashqi mafkuraviy ta'sirlar-mavjud.

Karl Mannheimning klassik ta'rifiga ko'ra, "mafkura-bu jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar yoki davlatlar manfaatlarini aks ettiruvchi g'oyalar, qadriyatlar va e'tiqodlar tizimidir" [1]. Karl Deutsch esa "uzoq muddatli integratsion birlashmalar faqat harbiy yoki iqtisodiy manfaatlar asosida emas, balki umumiy qadriyatlar va mafkuraviy konsensus asosida shakllanadi" deb ta'kidlagan [2]. Ushbu nazariy asoslar Markaziy Osiyo kontekstida qay darajada o'rinnililigi ilmiy jihatdan tekshirish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqot Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasidagi mafkuraviy muammolarni millatchilikning kuchayishi, diniy ekstremizm, axborot urushi va tarix talqinidagi ziddiyatlarni

kompleks tahlil qilib, integratsiyaning mafkuraviy asoslarini mustahkamlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni ko'zlaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Mintaqa davlatlari mafkurasini o'rganishda Saidov A.X. milliy g'oyaning shakllanishini Markaziy Osiyo kontekstida tahlil qildi [3]. Roy O. mintaqadagi islom omilini davlat va jamiyat munosabatlari nuqtai nazaridan o'rgandi [4]. Collins K. esa klanoviy tizimlar va ijtimoiy kapitalning integratsiyaga ta'sirini keng qamrovli tadqiq etdi [5]. Khalid A. islomning sovetdan keyingi Markaziy Osiyodagi tarixiy tiklanish jarayonini tizimli tahlil qildi [6].

O'zbek akademik muhitida Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston" konseptsiyasi doirasida mintaqaviy hamkorlikni mafkuraviy jihatdan asoslashga yangicha yondashuv kiritdi [7]. Qozog'istonda "Mangilik El" g'oyasi mintaqaviy kontekstda ham o'rganilib, Syzdykov A. bu konseptsianing Yevroosiyo integratsiyasidagi mafkuraviy rolini tahlil qildi [8].

Peyrouse S. esa Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan islomning siyosiy vosita sifatida emas, milliy identitet elementi sifatida qabul qilinishini o'rgandi [9].

Tadqiqotda qo'yilgan metodologik yondashuvlar: matn tahlili (rasmiy siyosiy nutqlar va hujjatlar), qiyosiy madaniyatshunoslik (besh davlat milliy g'oyalarini solishtirish), ko'rsatkichlar tahlili (ta'lim, ommaviy axborot, madaniy hamkorlik statistikasi), hamda intervyu usuli (ekspert baholashlar). Ikkilamchi manbalar sifatida xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar va tarixiy hujjatlardan foydalanildi.

NATIJALAR

1. Mintaqadagi mafkuraviy birlashtiruvchi omillar. Tadqiqot natijalari mintaqada bir necha kuchli mafkuraviy birlashtiruvchi omillar mavjudligini aniqladi. Birinchidan, islom sivilizatsiyasiga mansublik barcha besh davlat uchun umumiy ma'naviy zamin yaratadi. Biroq Roy O. ta'kidlaganidek, "Markaziy Osiyo davlatlari islomni milliy identifikatsiyaning bir qismi sifatida qabul qilsa-da, uni siyosiy mafkura darajasiga ko'tarishga qarshilik qilmoqda" [4]. Bu diniy umumiylikning integratsion imkoniyat sifatida foydalanilishi yoki radikalizm xavfiga aylanishi davlatlarning siyosati bilan belgilanishini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, Buyuk Ipak yo'li sivilizatsiyasi-Samarqand, Buxoro, Xiva kabi umumiy tarixiy markazlar mintaqaviy identitetning ramziy poydevorini tashkil etadi. Temuriylar, Somoniylar va boshqa ulkan davlatchiliklarning birgalikdagi merosi mintaqada xalqlarini birlashtiruvchi tarixiy xotira sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot ko'rsatadiki, bu tarixiy meros hali integratsiyaning to'liq potensialiga ega vositaga aylanmagan.

Uchinchidan, turkiy til oilasiga mansub to'rtta davlat (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston) o'rtasida lingvistik yaqinlik muloqot va tushunishuvning tabiiy asosini yaratadi. Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) bu imkoniyatdan faol foydalanmoqda. Biroq tojik-o'zbek madaniy sintezi va rus tilining umumiy muloqot vositasi sifatidagi roli mintaqaviy axborot maydonida murakkab lingvistik mozaikani vujudga keltirmoqda.

2. Milliy identitet tafovutlari va integratsiyaga to'siqlar. Tadqiqotning asosiy natijalaridan biri shundan iboratki, mustaqillikdan keyin shakllangan milliy identifikatsiya tizimlari o'rtasidagi farqlar mintaqaviy integratsion mafkurani ishlab chiqishni jiddiy qiyinlashtirmoqda. O'zbekistondagi "O'zbek milliy g'oyasi", Qozog'istondagi "Mangilik El" konseptsiyasi, Qirg'izistondagi Manas eposi asosidagi identifikatsiya, Tojikistondagi forsiy-tojik sivilizatsiy merosi va Turkmanistondagi "Ruhnama" asariga tayangan ruhiy-ma'naviy

qadriyatlar o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, lekin ayni vaqtda har bir davlatning o'ziga xosligini ta'kidlovchi tizimlarni vujudga keltirdi.

Saidov A.X. ta'kidlaganidek, "bu jarayon bir vaqtning o'zida ham integratsiyaga nisbiy zamin yaratdi, ham uning oldiga yangi to'siqlar qo'ydi" [3]. Milliy rivoyatlar tizimi ham birlashtiruvchi (umumiy sivilizatsion meros), ham ajratuvchi (o'z milliy buyukligini ta'kidlash) xususiyatga egadir.

Diniy radikalizm va ekstremizm xavfi ham integratsiyaning mafkuraviy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mintaqada ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik va ta'lim sifati muammolari ayrim hollarda radikal g'oyalar tarqalishi uchun qulay zamin yaratishi mumkin. Bu tahdidlar milliy chegarani tan olmaydi va butun mintaqaning barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi.

3. Axborot urushi va tashqi mafkuraviy ta'sirlar. Tadqiqot mintaqada faol olib borilayotgan axborot urushini integratsiyaning mafkuraviy muhitiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida aniqladi. Rossiya Yevroosiyo g'oyasini, Xitoy "umumiy taraqqiyot" va "sivilizatsiyalar muloqoti" konseptsiyasini, G'arb esa liberal demokratiya va bozor iqtisodiyoti mafkurasini mintaqaga targ'ib qilmoqda. Bu "mafkuraviy raqobat" mahalliy davlatlarning mustaqil mafkuraviy yo'l izlashini murakkablashtiradi. Dezinformatsiya va tarixiy faktlarni buzib ko'rsatish urinishlari mintaqalararo ishonchga salbiy ta'sir qilishi mumkinligi aniqlandi. Ayni paytda mintaqaviy OAV o'rtasidagi hamkorlik yetarli darajada rivojlanmaganligi bir-birini to'g'ri anglash va ijobiy obraz shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda.

Tadqiqot axborot makonini birlashtirish va media hamkorlikni mustahkamlash mintaqaviy integratsiyaning mafkuraviy poydevorini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi.

Ta'lim tizimi mafkuraviy integratsiyaning uzoq muddatli instrumenti sifatida alohida o'rin egallaydi. Agar o'quv dasturlari va darsliklarida Markaziy Osiyoning umumiy tarixi, madaniy aloqalari va zamonaviy hamkorlik istiqbollari izchil yoritilsa, yoshlar mintaqaviy birdamlikni tabiiy qadriyat sifatida qabul qilishi ta'minlanadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari Deutsch nazariyasining Markaziy Osiyo kontekstida qisman tasdiglanishini ko'rsatdi: umumiy qadriyatlar va mafkuraviy konsensus integratsion jarayonlar uchun muhim, biroq yetarli emas. Mintaqada iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlarining mafkuraviy umumiylik bilan uyg'unlashuvi integratsiyani yanada mustahkamlaydi.

Mintaqaviy mafkuraviy asoslarni mustahkamlashda O'zbekistonning "Yangi O'zbekiston" konseptsiyasi muhim rol o'ynaydi. Prezident Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mintaqaviy hamkorlik-bu nafaqat iqtisodiy zarurat, balki bizning umumiy tarixiy taqdimimizning mafkuraviy ifodasi hamdir" [7]. Bu yondashuv mafkurani integratsiyanin tashqi oqlash vositasi sifatida emas, balki ichki motivatsiya manbai sifatida ko'radi.

"Yumshoq kuch" (soft power) modeli-umumiy tarixiy-madaniy meros, diniy bag'rikenglik va konstruktiv milliy identitet-mintaqaviy integratsiyaning mafkuraviy asosi sifatida taklif etilishi mumkin. Bu model milliy xususiyatlarni rad etmaydi, balki ularni mintaqaviy birlik g'oyasi bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Madaniy diplomatiya-festivallar, qo'shma ilmiy markazlar, yoshlar almashinuvi dasturlari-bu modelni amalga oshirishning amaliy instrumentlari hisoblanadi. Siyosiy tizimlar o'rtasidagi farq integratsiyaning mafkuraviy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Olcott M.B. ta'kidlaganidek, "siyosiy tizimlar o'rtasidagi mos kelmaslik Markaziy Osiyo integratsiyasining eng chuqur mafkuraviy to'siqlaridan biri" hisoblanadi [10]. Biroq pragmatik yondashuv-siyosiy tizim qanday bo'lishidan qat'i nazar, iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlarini ustun qo'yish - bu to'siqni qisman bartaraf etish imkonini beradi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasining mafkuraviy asoslarini kompleks tahlil qilib, quyidagi asosiy xulosalarga keldi. Birinchidan, mintaqada islom sivilizatsiyasi, Ipak yo'li madaniy merosi va turkiy-forsiy lingvistik yaqinlik asosida kuchli mafkuraviy integratsion potensial mavjud bo'lib, bu potensial hali to'liq ro'yobga chiqarilmagan. Ikkinchidan, milliy identifikatsiya tizimlari o'rtasidagi farqlar va siyosiy rejimlar tafovuti integratsiyaning mafkuraviy muhitini murakkablashtirmoqda, biroq pragmatik hamkorlik yondashuvi orqali bu to'siqlarni bartaraf etish mumkin. Uchinchidan, axborot urushi va tashqi mafkuraviy ta'sirlar mintaqaviy integratsiyaga salbiy ta'sir ko'rsatib, ichki axborot makonini birlashtirishni zaruriy qilmoqda. To'rtinchidan, ta'lim, madaniy diplomatiya va yoshlar siyosati mafkuraviy integratsiyaning uzoq muddatli va eng samarali instrumentlari sifatida alohida e'tiborga loyiq.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi: mintaqada davlatlari o'rtasida qo'shma tarix darsliklari yaratish, mintaqaviy yoshlar almashinuvi dasturlarini kengaytirish, umumiy OAV hamkorlik platformasini shakllantirish va diniy-ma'rifiy sohadagi birgalikdagi tadbirlarni tizimlashtirish. Kelgusidagi tadqiqotlar mafkuraviy integratsiyaning kuzatiladigan ko'rsatkichlarini-yoshlar so'rovlari, OAV tahlili, madaniy kontakt statistikasi-ishlab chiqib, mafkuraviy birlik darajasini miqdoriy baholash metodologiyasini yaratishi lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Mannheim K. Ideology and Utopia: An Introduction to the Sociology of Knowledge.-New York: Harcourt, Brace and Co., 1936.-P. 49-53.
2. Deutsch K.W. Political Community and the North Atlantic Area.-Princeton: Princeton University Press, 1957.-P. 36-39.
3. Saidov A.X. Markaziy Osiyo davlatlarida milliy g'oyaning shakllanishi.-Toshkent: O'zbekiston, 2005.-B. 78-83.
4. Roy O. The New Central Asia: Geopolitics and the Birth of Nations.-New York: New York University Press, 2000.-P. 153-158.
5. Collins K. Clan Politics and Regime Transition in Central Asia.-Cambridge: Cambridge University Press, 2006.-P. 41-46.
6. Khalid A. Islam after Communism.-University of California Press, 2007.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2021.-B. 112.
8. Syzdykov A. Mangilik El: natsionalnaya ideya Kazakhstana v kontekste evraziyskoy integratsii.-Astana: El-or-da, 2015.-S. 67-72.
9. Peyrouse S. Discussing Islam in Central Asia: Between State Control and Reformist Pressures // The Journal of Muslim Minority Affairs.-2007.-Vol. 27, No. 2.-P. 184-186.
10. Olcott M.B. Central Asia's Second Chance.-Washington D.C.: Carnegie Endowment for International Peace, 2005.-P. 118-123.
11. Kuçi G. Informing Science and International Relations: Transdisciplinarity of the Concepts Civilization, Ideology, and Geopolitics // Informing Science.-2022.-T. 25.
12. Mirziyoyev Sh.M. "Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida" maqolasi.-Toshkent, 2025